Tarixiy obidalarimizni asrash yo’lidagi tadqiqotlar

Xiva shahridagi Ichan-Qal’a 1990-yil dekabr oyida YUNESKO tasarrufiga - jahon madaniyati va merosi ro'yxatiga kiritildi va shaharga “Xiva - ochiq osmon ostidagi muzey shahar” degan oliy maqom berildi. X-XX asrlar arxitektura yodgorliklarining O‘rta Osiyoda yagona majmuasi, davlat arxitektura muzey - qo‘riqxonasi Ichan-Qal’ada 54ta tarixiy me’moriy obida mavjuddir. Mamlakatimizni jadal rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasida shaharsozlik va me’morchilikni yanada takomillashtirish, me’moriy yodgorliklarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish borasidagi muammolarni hal etish chora-tadbirlari belgilangan. Muhtaram Yurtboshimiz aytganidek, - “Madaniy meros obyektlari xalqning bebaho boyligi, ularni asrash va avlodlarga bezavol yetkazish barchamizning burchimizdir. Yurtimizdagi tarixiy obidalarni saqlash va ta’mirlash, buyuk ajdodlarimizning qadamjolarini obod etish bo‘yicha oldimizda hali qanchadan-qancha vazifalar turibdi”.

Shu xususda, Ichan-Qal’a muzey qo‘riqxonasi hududida joylashgan - 213 ta yog’och ustun ko‘tarib turgan “Juma Masjid” me’moriy yodgorligining turli salbiy ta’sirlardan saqlash va umrini uzaytirishga oid amaliy ishlar bajarish juda ham zarur. Chunki, Sobiq ittifoq davrida (1940-50 yy) Juma Masjid obidasida tumanning paxta va donini saqlash uchun omborxona vazifasini o‘tagan, natijada obidadan noto‘g‘ri foydalanilgan. Hozirda, noyob yog‘och ustunlar, tomyopma qismlarining ko‘pchiligi biologik ta’sir hisoblangan - termitdan zararlangan. Shuningdek, yer osti suvlarining ko‘tarilishi va atmosfera suvlari ta’sirida tomyopma qismi namlangan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda “Xiva shahridagi 1000-yillik tarixga ega “Yog‘och muzey” - Juma Masjidini saqlash va ta’mirlashda innovatsion yondoshuv” mavzusida grant loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Germaniya Ta’lim va tadqiqotlar federal vazirligi (BMBF) hamkorlikdagi xalqaro ilmiy loyihalar tanlovida g‘olib deb topildi.

Loyihaning asosiy maqsadi – Markaziy Osiyodagi yagona “Yog‘och muzey” Juma Masjid me’moriy yodgorligining kelgusi avlodlarga asl holida yetkazish maqsadida katta tajribaga ega bo‘lgan YUNESKOning Germaniyadagi “Deutsches Fachwerkzentrum Quedlinburg e.V” ta’mirlash markazi bilan hamkorlikda yog‘och ustunlarni va tomyopma qismini innovatsion texnologik usullar qo‘llagan holda an’anaviyligini saqlab qolish asosida ta’mirlash ishlarini bajarishdan iborat.

Shu xususda, loyiha doirasida Xorazm ma’mun akademiyasi “Janubiy Orolbo‘yi tarixiy me’moriy yodgorliklarining qurilish materiallarini sinash va ta’mirlash laboratoriyasi” olimlari bilan hamkorlikda Claudia Christina Hennrich rahbarligidagi 8 kishidan iborat ilmiy guruh (Birgit Maria Schön, Ulrich Otto Thümmler, Noah Jasper Whistler, Dieter Herbert Hegholz, Conny Luthardt, Hannah Thielicke, Lydia Hahmann) Juma Masjid me’moriy obidasining yog‘och ustunlari bo‘yicha innovatsion yondoshuv asosida ustunlarni texnik holatini aniqlash, ularni ichki strukturasini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishmoqda.

Loyiha natijalaridan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy meros departamenti bo‘limlarida ham qadimiy masjidlarni saqlash va ta’mirlashda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, natijalardan mamlakatimizdagi va qo‘shni davlatlardagi qadimiy yog‘och ustunli masjidlarni saqlash va ta’mirlash samaradorligini oshirishda eski metodlardan voz kechish, yangi zamonaviy talablarga mos keladigan takomillashtirilgan metodologiyalardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Eng asosiysi, mamlakatimizning noyob “Yog‘och muzeyi” xisoblangan Juma Masjid me’moriy obidasi jiddiy talofatlardan saqlanadi va uning umrboqiyligi ta’minlanadi.



